

KASBIY STANDART

Foydali qazilmalarni maydalash va saralash

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu Kasbiy standart "G'alvirlovchi", "Tog'-kon ishlab chiqarishida maydalovchi", "Konveyer mashinisti", "Tegirmon mashinisti (tog'-kon va boyitish ishlarida)" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

ag'darma – bo'sh tog' jinslari yoki kambag'al rudalarni to'plash joyi;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

bo'tananing zichligi – bo'tana tarkibidagi qattiq zarralarning miqdorini ko'rsatuvchi atama;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

g'alvir – dastlabki mahsulotini elovchi yuzada yirikligi bo'yicha ikki yoki undan ortiq sinflarga bo'lish uchun mo'ljallangan uskuna;

g'alvirlash – elaklovchi yuzalargda mahsulotlarni yirikligi bo'yicha sinflarga ajratish jarayonidir;

gidrosiklonlar – bo'tananing aylanma harakati natijasida hosil bo'ladigan markazdan qochma maydonda, mayda yanchilgan mahsulotlarning gidravlik tasniflanishi uchun mo'ljallangan uskuna;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

konsentrat – boyitilgan ruda;

maydalash – qattiq zarralarni bir-biriga bog'laydigan ichki kuchlarni yengadigan tashqi kuchlar ta'sirida foydali qazilma bo'laklarining o'lchamini kichraytirish jarayoni;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

ruda – tarkibida kerakli metallar bo'lgan tog' jinslari;

shlyuz – to'g'ri to'rtburchak kesimiga, uncha katta bo'lmagan qiyalikka ega tarnovcha;

yanchish – foydali qazilmalarni tashqi kuchlar ta'sirida yopiq hajmlarda talab qilinadigan yiriklikkacha yoki minerallarning yuzasini ochish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'RQ-410-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori, O'zMSt 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi "O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 290-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-oktabrdagi "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini hamda ushbu ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 637-son qarori;

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025), O'zMSt 641:2025.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

T/r – Tartib raqami.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Foydali qazilmalarni maydalash va sarlash	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Rudalarni maydalash, g'alvirlash va yanchish jarayonlarini olib borish va uskunalarga xizmat ko'rsatish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	B seksiyasi Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 07 Metall rudalarini qazib olish 07.1 Temir rudasini qazib olish 07.10. Temir rudasini qazib olish 07.10.0. Temir rudasini qazib olish 07.2 Rangli metallar rudalarini qazib olish 07.20. Rangli metallar rudalarini qazib olish 07.20.0 Rangli metallar rudalarini qazib olish 07.29 Boshqa rangli metallar rudalarini qazib olish 07.29.0 Boshqa rangli metallar rudalarini qazib olish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Foydali qazilmalarni katta, o'rtacha va mayda maydalash va saralash. Maydalangan rudalarni konveyerlarda tashish va yanchish. Maydalagichlar, g'alvirlar, konveyerlar va tegirmonlarni boshqarish	
5	Kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		81122010 G'alvirlovchi	2
		81121014 Konveyer mashinisti	3
		81121037 Tegirmon mashinisti (tog'-kon va boyitish ishlarida)	3
		81121038 Tog'-kon ishlab chiqarishida maydalovchi	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	81122010 G'alvirlovchi	A1.2	Foydali qazilmalarni boyitishda g'alvirlash ishlarini amalga oshirish	A1.01.2	Foydali qazilmalarni g'alvirlashga tayyorlash, nosozliklarni aniqlash va ta'mirlash ishlarida ishtirok etish
				A1.02.2	G'alvirlash jarayonlarini boshqarish, nazorat qilish va jarayon uzluksizligini ta'minlash
2	81121014 Konveyer mashinisti	B1.3	Foydali qazilmalarni boyitishda konveyerlarni ishga tayyorlash, texnik xizmat va ko'rsatish boshqarish	B1.01.3	Konveyerlarni ishga tayyorlash
				B1.02.3	Konveyerlarni boshqarish
				B1.03.3	Konveyerga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini olib borish
3	81121037 Tegirmon mashinisti (tog'-kon va boyitish ishlarida)	D1.3	Materiallarni tegirmonlarda yanchish ishlarini olib borish	D1.01.3	Ish joyini tayyorlash, uskunalar holatini va ishga yaroqliligini tekshirish
				D1.02.3	Yanchish jarayonlarini boshqarish
				D1.03.3	Yanchish uskunasi texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
4	81121038 Tog'-kon ishlab chiqarishida maydalovchi	E1.3	Maydalash uskunasi texnik xizmat ko'rsatish	E1.01.3	Maydalash uskunalarini texnik ko'rikdan o'tkazish
				E1.02.3	Maydalash uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha yordamchi operatsiyalarni bajarish
		E2.3	Materiallarni maydalash uchun texnologik jarayonlarni boshqarish	E2.01.3	Katta, o'rta va kichik materiallarni maydalash jarayonlarini boshqarish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	G'alvirlovchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	81122	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar; Mehnat muhofazasi, sanoat va texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi me'yoriy talablari, favqulodda vaziyatlar, yong'in va elektr xavfsizligi talablari bo'yicha bilimlarni sinovdan o'tgan bo'lishi; Dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Texnologik jarayonlarni tushunishi va belgilangan rejimda olib borish; G'alvirlash uskunalarini to'g'ri boshqarishi va sozligini nazorat qilish; Xomashyo va tayyor mahsulot fraksiyalarini ajrata olish; Ish jarayonida mehnat, sanoat va ekologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish; Belgilangan vazifalarni ish vaqtdan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; Jamoa bilan inoq ishlash; O'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	1-6 razryadli Tog'- kon ishlab chiqarishda maydalovchi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Tog'-kon ishlab chiqarishida maydalovchi
	3	Konveyer mashinisti

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2 - Materiallarni g'alvirlash	A1.01.2 - G'alvirlashga tayyorlash, nosozliklarni aniqlash va ta'mirlash ishlarida ishtirok etish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Smenani qabul qilish va topshirish vaqtida smenadagi ishlab chiqarish topshirig'i, ish joyining holati, elaklar va xizmat ko'rsatadigan uskunadagi nosozliklar va ularni bartaraf etish choralari to'g'risida ma'lumot olish hamda ma'lumot berish
		2. Binolar, poydevorlar, derazalar, eshiklar, pollarning yaroqliligi kuzatish
		3. Uskunalar, asboblari, moslamalar, inventarlar va shaxsiy himoya vositalarini toza va yaroqli holatda saqlash
		4. Ish joyini toza saqlash
		5. Mehnat muhofazasi, sanoat sanitariyasi, elektr xavfsizligi, yong'in va sanoat xavfsizligi talablariga amal qilgan holda ishlarni tashkil etish
		6. Elaklar va panjaralarni o'rnatish, tozalash va almashtirish
		7. Xizmat ko'rsatiladigan uskunalarining ishqalanish qismlarini tozalash va moylash
		8. G'alvirlar va barabanli to'yintirgichlarning ishqalanadigan qismlarini moylanganlik holatini muntazam nazorat qilish
		9. G'alvirlar panjarasini yopishib qolgan rudadan tozalash
		10. Begona narsalarni olib tashlash
		11. Yirik va qotib qolgan massani parchalash
		12. Xizmat ko'rsatiladigan uskunadagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish, uni ta'mirlashda ishtirok etish
		13. Podshipniklarning mustahkamligi va g'alvirlarning aylanuvchi qismlarini to'sib turuvchi himoya qoplamalari holatini nazorat qilish
		14. Podshipniklarni qizib ketmasligini nazorat qilish
		15. Nazorat o'lchov asboblari va avtomatlashtirish tizimini ishlashini va sozligini nazorat qilish
		16. Aspiratsiya va changni bostirish tizimlarining yaroqliligi va ishlashini kuzatish va nazorat qilish
		17. Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish
		Ko'nikmalar:
		Podshipniklar haroratini vizual aniqlash
		Blokirovkalar, ishlab chiqarish signalizatsiyasi va aloqa vositalarining ishlash qobiliyatini vizual baholash
		Ish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli va zararli sanoat omillarining odamlarga ta'sirini, shuningdek ularning ta'siridan himoya qilish usullarini aniqlay olish
		Boshqaruv pulti operatori bilan aloqa qilish uchun radioaloqa vositalaridan to'g'ri foydalana olish

		Shaxsiy himoya vositalari, o't o'chirish vositalaridan va favqulodda holatlarga mo'ljallangan asboblardan to'g'ri foydalanish
		Birlamchi o't o'chirish uskunalaridan foydalana olish
		Bilimlar:
		Texnik shartlar, standartlar va ruxsat etilgan og'ishlar normalari
		Mahsulotlarning fizik-mexanik xususiyatlari
		Elaklarni mahkamlash va almashtirish usullari
		Maydalash sexi va uchastkasining sxemasi
		O'lchov vositalarining qo'llanilish tartibi
		Nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullari
		Chilangarlik ishlari
		Sexlar va uchastkalardagi havo, gaz, suv va boshqa kommunikatsiyalar sxemalari
		Balandlikda ishlar olib borilayotgan joylarni xavfsiz masofadan aylanib o'tish qoidalari
		Xavfsizlik bo'yicha taqiqllovchi, ogohlantiruvchi, ko'rsatma beruvchi (ko'rsatuvchi) va buyruq beruvchi belgilar hamda yozuvlarga qo'yilgan talablar
		Avariya oqibatlarini cheklash va bartaraf etish bo'yicha tadbirlar rejasi.
		Mehnat muhofazasi, sanoat, ekologik va yong'in xavfsizligi talablari
		Uskuna mexanizmlarining blokirovka tizimlari, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari, ishlab chiqarish signalizatsiyasi hamda aloqa vositalarining ishga yaroqliligi va ishlash qobiliyatini tekshirish usullari, tartibi va davriyligi
		Mehnat muhofazasi, sanoat, ekologik va yong'in xavfsizligi bo'yicha talablar, qoidalar va yo'riqnomalar
		Ichki mehnat tartib qoidalari, belgilangan ish va dam olish rejimi
		Belgilangan signalizatsiya tizimi va signallarni berish qoidalari
		Yong'in to'g'risidagi signal berish tizimlari, yong'inga qarshi uskunalar va birlamchi o't o'chirish vositalarining aniq joylashgan joylari hamda ulardan foydalanish qoidalari
	A1.02.2 - G'alvirlash jarayonlarini boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Smenani qabul qilish va topshirish vaqtida smenadagi ishlab chiqarish topshirig'i, ish joyining holati, elaklar va xizmat ko'rsatadigan uskunadagi nosozliklar va ularni bartaraf etish choralari to'g'risida ma'lumot olish
		2. Binolar, poydevorlar, derazalar, eshiklar, pollarning yaroqliligi kuzatish
		3. Uskunalar, asboblari, moslamalar, inventarlar va shaxsiy himoya vositalarini toza va yaroqli holatda saqlash

		4. Ish joyini toza saqlash
		5. Mehnat muhofazasi, sanoat sanitariyasi, elektr xavfsizligi, yong'in va sanoat xavfsizligi talablariga amal qilgan holda ishlarni tashkil etish
		6. Elaklar va panjaralarni o'rnatish, tozalash va almashtirish
		7. Xizmat ko'rsatiladigan uskunalarning ishqalanish qismlarini tozalash va moylash
		8. G'alvirlar va barabanli to'yintirgichlarning ishqalanadigan qismlarini moylanganlik holatini muntazam nazorat qilish
		9. G'alvirlar panjarasini yopishib qolgan rudadan tozalash
		10. Begona narsalarni olib tashlash
		11. Yirik va qotib qolgan massani parchalash
		12. Xizmat ko'rsatiladigan uskunadagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish, uni ta'mirlashda ishtirok etish
		13. Podshipniklarning mustahkamligi va g'alvirlarning aylanuvchi qismlarini to'sib turuvchi himoya qoplamalari holatini nazorat qilish
		14. Podshipniklarni qizib ketmasligini nazorat qilish
		15. Nazorat o'lchov asboblari va avtomatlashtirish tizimini ishlashini va sozligini nazorat qilish
		16. Aspiratsiya va changni bostirish tizimlarining yaroqliligi va ishlashini kuzatish va nazorat qilish
		17. Nam g'alvirlash vaqtida elaklar, to'yintiruvchilar va suv ta'minotining ishlashini tartibga solish
		18. Barabanli to'yintiruvchilar, elaklar va konveyerlarning bir me'yorda ishlashini kuzatish va nazorat qilish
		19. Ruda bir me'yorda kelishini kuzatish va nazorat qilish
		20. Elakning butun kengligi bo'ylab g'alvirga materialning bir tekisda berilishini kuzatish
		21. Panjara (elak)larning yaroqliligini muntazam ravishda kuzatib borish
		22. Panjara ostidagi materialining oqimlarini kuzatish
		23. G'alvirlash sifatini nazorat qilish
		24. Tahlil qilish uchun namuna olish
		25. Nam g'alvirlash vaqtida elaklar, to'yintiruvchilar va suv ta'minotining ishlashini tartibga solish
		Ko'nikmalar:
		Blokirovkalar, ishlab chiqarish signalizatsiyasi va aloqa vositalarining ishlash qobiliyatini vizual baholash
		Ish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli va zararli sanoat omillarining odamlarga ta'sirini, shuningdek ularning ta'siridan himoya qilish usullarini vizual aniqlash
		Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsata olish ko'nikmasi
		Boshqaruv pulti operatori bilan aloqa qilish uchun radioaloqalardan to'g'ri foydalanish

		Shaxsiy himoya vositalari, o't o'chirish vositalaridan va favqulodda holatlarga mo'ljallangan asboblardan to'g'ri foydalanish
		Birlamchi o't o'chirish uskunalaridan foydalana olish
		G'alvirlash jarayonida foydalaniladigan uskunalar, mexanizmlar, qurilmalar va jihozlarning ishlash qobiliyatini vizual tarzda aniqlash
		G'alvirlangan materiallar o'lchamlarini vizual aniqlash
		G'alvirlangan materiallar namunalarini tayyorlash
		Asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish
		Panjara (elak)larning yaroqliligini vizual aniqlash
		Ish jarayonida uskunalar va mexanizmlardan maqsadli hamda samarali foydalanish
		Bilimlar:
		Texnik shartlar, standartlar va ruxsat etilgan og'ishlar normalari
		Mahsulotlarning fizik-mexanik xususiyatlari
		Elaklarni mahkamlash va almashtirish usullari
		Maydalash sexi va uchastkasining sxemasi
		O'lchov vositalarining qo'llanilishi va ularning ko'rsatkichlari
		Nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullari
		Chilangarlik ishlari
		Sexlar va uchastkalardagi havo, gaz, suv va boshqa kommunikatsiyalar sxemalari
		Balandlikda ishlar olib borilayotgan joylarni xavfsiz masofadan aylanib o'tish qoidalari
		Xavfsizlik bo'yicha taqiqlovchi, ogohlantiruvchi, ko'rsatma beruvchi (ko'rsatuvchi) va buyruq beruvchi belgilar hamda yozuvlarga qo'yilgan talablar
		Avariya oqibatlarini cheklash va bartaraf etish bo'yicha tadbirlar rejasi
		Mehnat muhofazasi, sanoat, ekologik va yong'in xavfsizligi talablari
		Uskuna mexanizmlarining blokirovka tizimlari, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari, ishlab chiqarish signalizatsiyasi hamda aloqa vositalarining ishga yaroqliligi va ishlash qobiliyatini tekshirish usullari va tartibi
		Mehnat muhofazasi, sanoat, ekologik va yong'in xavfsizligi bo'yicha talablar, qoidalar va yo'riqnomalar.
		Ichki mehnat tartib qoidalari, belgilangan ish va dam olish rejimi
		Belgilangan signalizatsiya tizimi va signallarni berish qoidalari
		Yong'in to'g'risidagi signal berish tizimlari, yong'inga qarshi uskunalar va birlamchi o't o'chirish vositalarining

		aniq joylashgan joylari hamda ulardan foydalanish qoidalari
		G'alvirlash texnologiyalari
		G'alvirlashga tayyorgarlik ishlarini olib borish tartibi va qoidalari
		G'alvirlar, panjaralar (elak), dvigatellar, to'yintirgichlar, transportyorlar va aspiratsiya tizimlarining tuzilishi, ishlash tamoyili hamda ularni ekspluatatsiya qilish qoidalari
		Eng samarali g'alvirlash va saralash rejimlari
		Elaklar, to'yintirgichlar, konveyerlar va rudalarni maydalash sxemasi
		Xizmat ko'rsatiladigan uskunani ishga tushirish va to'xtatish qoidalari
		Ishchi va texnologik yo'riqnomalar rejim xaritasi me'yorlari
		G'alvirlar, to'yintirgichlar va boshqa uskunalarining tuzilishi, ishlash prinsipi, ish rejimi, ularni boshqarish qoidalari hamda ularga xizmat ko'rsatish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Xavfsizlik talablariga amal qilgan holda ishlarni tashkil etadi
		2. Yong'in haqida xabar beradi
		3. Smena boshlig'i tomonidan berilgan naryad-ruxsatnomasi asosida topshiriqlarni xavfsiz va samarali bajarilishini ta'minlaydi
		4. Materiallarni sifatli g'alvirlaydi
		5. G'alvirlarni to'g'ri va soz holatda ishlatadi
		6. Begona narsalarning g'alvirlash jarayoniga tushmasligini nazorat qiladi
		7. Ish quvvati 100m ³ /soat gacha bo'lgan g'alvirlarni va g'alvirlash jarayonini boshqaradi
		8. Ish quvvati 100m ³ /soatdan 500m ³ /soat gacha bo'lgan g'alvirlarni, tarkibida olmos bo'lgan materiallarni g'alvirlashda esa ish quvvati 250m ³ /soat gacha bo'lgan g'alvirlarni va g'alvirlash jarayonini boshqaradi
		9. Ish quvvati 500m ³ /soat dan yuqori bo'lgan g'alvirlarni, tarkibida olmos bo'lgan materiallarni g'alvirlashda esa ish quvvati 250m ³ /soat yuqori bo'lgan g'alvirlarni va g'alvirlash jarayonini boshqaradi
	Texnik va/yoki texnologik talab:	
	G'alvirlovchi mexanik, vibratsion va barabanli g'alvirlash uskunalarining tuzilishi va ishlash prinsiplarini bilishi zarur; G'alvirlar, elaklar va saralash panjaralarining turlari, katak o'lchamlari va qo'llanilish sohaslarini farqlashi kerak; Elektr dvigatellar, uzatmalar va vibratsion mexanizmlarning asosiy qismlarini tushunishi shart; G'alvirlash uskunalarini ishga tushirish va to'xtatish tartibiga qat'iy rioya qilishi lozim; Uskunalarining texnik holatini muntazam tekshirishi va nosozlik belgilarini aniqlay olishi zarur;	

	O'lchov va nazorat asboblariidan to'g'ri foydalanishi kerak; Mehnat muhofazasi, sanoat va elektr xavfsizligi talablariga rioya qilishi shart; Xomashyo va materiallarni belgilangan texnologik reglament asosida g'alvirlash jarayonini olib borishi lozim; Materiallarning donadorligi va namligiga qarab g'alvirlash rejimini tanlashi zarur; G'alvirlash jarayonida unumdorlik va saralash aniqligi ko'rsatkichlarini ta'minlashi kerak; Materiallarning g'alvir yuzasida bir tekis taqsimlanishini ta'minlashi shart; Ajratilgan fraksiyalarni belgilangan yo'nalishlar bo'yicha to'g'ri uzatilishini nazorat qilishi lozim; G'alvirlash jarayonida yuzaga keladigan nosozliklarni aniqlashi va bartaraf etish choralarini ko'rish zarur; Texnologik hujjatlar, smena topshiriqlari va ishlab chiqarish ko'rsatmalariga muvofiq ishlashi kerak; Ish yakunida uskunalarini tozalashi va keyingi ishga tayyor holatga keltirishi shart; Foydalaniladigan asbob va uskunalar: g'alvir (groxot) uskunasi, turli turdagi g'alvirlar, konveyer, vibrojo'natgich yoki vagonetkalar, g'alvir yorilmalarini tozalash uchun qo'l vositalari, uskunalar ish jarayonini nazorat qilish va avariya holatini oldini olish uchun; Shaxsiy himoya vositalari: Changdan himoyalovchi respirator, shovqindan himoyalovchi quloqchin, himoya ko'zoynaklari, kaska va qo'lqoplar, mustahkam maxsus kiyim va poyabzal; Me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalar: texnologik yo'riqnoma, texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma, jarayonni qayd etish uchun smena jurnali.
--	---

Kasbning nomi:	Konveyer mashinisti
Mashg'ulot nomining kodi:	81121
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar. Mehnat muhofazasi, sanoat va texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi me'yoriy talablari, favqulodda vaziyatlar, yong'in va elektr xavfsizligi talablari bo'yicha bilimlarni sinovdan o'tgan bo'lishi. Dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik; Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish; Lentali, zanjirli va rolikli konveyerlarning tuzilishi hamda ishlash prinsiplarini tushunishi; Konveyer uskunalarini ishga tushirish, to'xtatish va ish rejimiga keltirishni amalga oshirish; Materiallarning konveyer bo'ylab uzluksiz va bir maromda harakatlanishini ta'minlash; Konveyer lentasi, roliklar, barabanlar va tayanch elementlarining texnik holatini nazorat qilish; Konveyer ishlash jarayonida yuklama, tezlik va taranglik ko'rsatkichlarini kuzatish; Konveyer ishida yuzaga keladigan nosozliklar ni aniqlashi va bartaraf etish choralarini ko'rish; Favqulodda holatlarda konveyerni zudlik bilan to'xtatish va xavfsizlik choralarini qo'llash; Texnik xizmat ko'rsatish jarayonida belgilangan yo'riqnomalar va reglamentlarga rioya qilish; Mehnat muhofazasi, sanoat va yong'in xavfsizligi talablariga amal qilish; Ish jarayoni bo'yicha belgilangan hisob va nazorat hujjatlarini yuritish; Rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; Belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; Jamoa bilan inoq ishlash; O'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim;
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba

Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:			
Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari:		1-5 razryadli Konveyer mashinisti	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR boʻyicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:	
	2	Gʻalvirlovchi	
	3	Togʻ-kon ishlab chiqarishida maydalovchi	
	3	Tegirmon mashinisti (togʻ-kon va boyitish ishlarida)	
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
B1.3 - Konveyerlarni ishga tayyorlash, texnik xizmat koʻrsatish va boshqarish	B1.01.3 - Konveyerlarni ishga tayyorlash	Oʻqitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Konveyer transportining ishga tushurilishidan oldin konveyerning ekspluatatsiya qilish qoʻllanmasi va mehnat muhofazasi talablari asosida konveyerni texnik tayyorligini tekshirish	
		2. Ish joyining mehnat muhofazasi va yongʻin xavfsizligi talablariga mosligini tekshirish	
		3. Konveyerlarni boʻsh holatda xavfsizlik qurilmalarining toʻgʻri va ishonchli ishlashini, lentaning toʻgʻri yoʻnalishda harakatlanishini, elektr jihozlarni toʻgʻri ishlashini, tormoz tizimining samarali ishlashini, signal qurilmalarining ishlashini tekshirish	
		4. Konveyerning sozligini tekshirish boʻyicha maʼlumotlarni smenani qabul qilish va topshirish jurnaliga qayd etish	
		Koʻnikmalar:	
		Konveyer transportida koʻrinadigan shikastlanishlar mavjudligini aniqlash	
		Ish joyining mehnat muhofazasi va yongʻin xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash	
		Metallokonstruksiyalar va privodlar, elektrouskunalar va himoya qurilmalari, barabanlar va reduktorlar, aloqa va signalizatsiya vositalarining ishlash holatini aniqlash	
		Smenani qabul qilish va topshirish jurnalini belgilangan talablar asosida toʻldirish	
		Konveyer transportida koʻrinadigan shikastlanishlar mavjudligini aniqlash	
		Ish joyining mehnat muhofazasi va yongʻin xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash	
		Bilimlar:	
Konveyerlarning asosiy texnik koʻrsatkichlari, tuzilishi va ishlash prinsipi			

		Konveyer lentalari, roliklar, barabanlar va tortish mexanizmlarining vazifalari
		Ishga tushirishdan oldingi texnik ko'rik va tekshiruv tartibi
B1.02.3 - konveyerlarni boshqarish		Moylash, tortish va sozlash ishlarini bajarish ketma-ketlik tartibi
		Elektr va mexanik xavfsizlik talablari hamda mehnat muhofazasi qoidalari
		Nosozlik belgilarini aniqlash usullari
		Mehnat harakatlari:
		1. Konveyerlarni ekspluatatsiya qilish qo'llanmasiga muvofiq konveyerlarni ishchi va avariyaivij rejimda ishga tushirish, to'xtatish va harakat yo'nalishini o'zgartirish
		2. Konveyerlarni ekspluatatsiya qilish qo'llanmasiga muvofiq konveyerlar yuklamasini boshqarish
		3. Konveyerning ekspluatatsiya qilish qo'llanmasiga muvofiq ko'chma va taqsimlovchi tasmali konveyerlarni boshqarish hamda yuklamalarni qabul qiluvchi bunkerlar bo'yicha taqsimlash
		4. Konveyerning ekspluatatsiya qo'llanmasiga muvofiq skreberli konveyerlarining shiberli yopqichlarini boshqarish
		5. Konveyerni uzoq muddatga to'xtatishda uni o'chirish, yuqori kuchlanishli privod kameralarini binoga ichiga chiqish, boshqaruv zanjirini uzish hamda konveyer yo'nalishi bo'yicha elektr ta'minotini o'chirish
		6. Smena so'ngida konveyerning ekspluatatsiya qilish qo'llanmasiga, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi yo'riqnomasiga asosan konveyerlarni ko'zdan kechirish hamda tekshiruv natijalarini smenani qabul qilish va topshirish jurnaliga qayd etish
		7. Konveyerlar, elevatorlar, shneklar, to'yintirgichlar, yuk ko'chirish aravalari hamda konveyerning privod stansiyasini boshqarish
		8. Konveyerlar harakati yo'nalishini o'zgartirish va konveyerlar yuklamasini boshqarish
		9. Konveyer tasmalarini taranglashtiruvchi moslamalarini va tasmalar harakatini boshqarish
		Ko'nikmalar:
		Visual va chiqayotgan shovqinlar orqali konveyer holatini aniqlay olish
		Konveyer harakatini va konveyer yuklamasini boshqaruvchi uskunalaridan foydalanish
		Konveyerni ekspluatatsiya qilish qo'llanmasi va mehnat muhofazasi talablariga muvofiq konveyerlar pribvodlarini avtomatik va qo'lda boshqara olish

		Konveyerni ekspluatatsiya qilish qo'llanmasi talablariga muvofiq tashilayotgan materiallarning konveyerga yuklamasini aniqlay olish
		Konveyer lentasi yuklamasini tartibga soluvchi yordamchi uskunalaridan foydalanish
		Konveyerning yuk tushirish joyi va yo'nalishini o'zgartirish uchun yuk tushirish moslamalaridan foydalanish
		Smena qabul qilish va topshirish jurnalini to'g'ri to'ldira olish
		Bilimlar:
		Konveyerni ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanmaning talablari
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablari
		Avtomatik blokirovka apparaturalari, konveyerni ishga tushirish va avariya holatida konveyerlarni to'xtatish tartibi
		Konveyer transportining tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik xususiyatlari
		Favqulodda vaziyatlarda harakatlar tartibi (avariyalarni bartaraf etish rejasi)
		Yukni o'tkazish (yoki qayta yuklash) moslamalarining tuzilishi va ishlash prinsipi
		Smena qabul qilish va topshirish jurnalini to'ldirish talablari, naryad berish tizimi qoidalar
		Xizmat ko'rsatiladigan har bir turdagi uskuna uchun ruxsat etilgan tezligi va yuklamasi
		Tashilayotgan materialning xususiyatlari
		Konveyer tasmasining harakat tezligini tartibga solish va konveyerlarni teskari yo'nalishda harakatlantirish usullari
	B1.03.3 - Konveyer texnik xizmat ko'rsatish ishlarini olib borish	Mehnat harakatlari:
		1. Konveyer transporti va ish joyining holatini saqlash bo'yicha ishlarni konveyer mashinisti mehnat muhofazasi yo'riqnomasi talablariga muvofiq bajarish
		2. Konveyerlarni ekspluatatsiya qilish qo'llanmasi hamda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi yo'riqnomasi talablariga muvofiq konveyerdan begona jismlarni olib tashlash, konveyer metall konstruksiyalariga va ish zonasiga to'kilgan materiallarni tozalash, tiqilib qolishlarni bartaraf etish, roliklar va barabanlarni tozalash, jeloblarni va qayta yuklash qurilmalarini yopishib qolgan materiallardan tozalash
		3. Konveyerlarni ekspluatatsiya qilish qo'llanmasiga muvofiq konveyer tasmalarining tarangligini rostlash
		4. Konveyerlar barcha qismlarining texnik holatini nazorat qilish

		5. Ishdan chiqqan roliklarni konveyerlarni ekspluatatsiya qilish qo'llanmasiga muvofiq almashtirish
		6. Qismlar va mexanizmlarni moylash, moylarni almashtirish
		7. Barabanlar va privodlarni moylash, rolik tayanchlarini sozlash
		8. Tormozlarni sozlash
		9. Skreberli konveyerlar zanjirning tarangligini rostlash
		10. Elektr uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga muvofiq ishlarni olib borish
		11. Xizmat ko'rsatilayotgan uskunadagi nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha reglamentga muvofiq ishlarni olib borish
		12. Konveyerga o'rnatilgan qayta yuklovchi o'tkazgichlar, taranglovchi barabanlar, to'yintirgichlar reduktorlari, avtomatik qurilmalar holatini hamda materiallarning qabul qiluvchi agregatlarga to'g'ri tushirilishini kuzatib borish
		13. Konveyerlarni uzaytirish va ko'chirishda, tasmalarni va zanjirlarni ulashda ishtirok etish
		14. Roliklar va privodlarni moylash, lenta, roliklar va rolik tayanchlarini tozalash
		15. Moy oqava novchalarini tozalash
		Ko'nikmalar:
		Mehnat muhofazasi talablariga muvofiq konveyerni ishchi holatda saqlash bo'yicha ishlarni olib borish
		Texnik xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan soz holatdagi asbob-uskunalar va moslamalardan foydalanish
		Konveyer tasmalarining tortilish darajasini vizual aniqlash
		Zanjirlarning yulduzchalarga to'g'ri o'rnatilishini aniqlash
		Zanjirlarning osilib qolganlik holatini aniqlash va ularni tortilish darajasini boshqarish
		Zanjir bo'laklarining cho'zilganligini tekshirish
		Xizmat ko'rsatiladigan uskunalaridagi nosozliklarni aniqlash
		Mexanik va elektr uskunalariga belgilangan reglamentlar bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish
		Konveyerni ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma talablariga muvofiq privodlar va barabanlarni moylash
		Konveyerni ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma talablariga muvofiq konveyerning rolik tayanchlarini sozlash ishlarini amalga oshirish
		Shaxsiy himoya vositalarining sozligini aniqlash va ularni to'g'ri qo'llay olish

		Bilimlar:
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablari
		Konveyerni ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanmaning talablari
		Konveyer tasmasining ruxsat etilgan tortilish darajasi
		Konveyerning elektr ta'minoti sxemasi
		Privod stansiyasi, taqsimlovchi qurilmalar, himoya va kommutatsion apparaturani o'rnatish joylariga oid elektr uskunalari sxemalari
		Elektr uskunalari bilan ishlashda ishlarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-texnik tadbirlar
		Ish davomida qo'llaniladigan elektr uskunalarning tuzilishi va ekspluatatsiya qilish xususiyatlari
		Zaminlash qurilmalari va ulash punktining joylashuvi hamda tuzilishi
		Konveyerlarning xavfsizlik qurilmalari
		Mehnat faoliyatini bajarishda qo'llaniladigan shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari
		Konveyerda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklari turlari va ularni bartaraf etish usullari
		Konveyer uskunalari, mexanizmlari va konveyer tizimi holatiga qo'yiladigan me'yoriy talablar
		Xizmat ko'rsatiladigan uskunalar, ishga tushirish apparaturalari, nazorat-o'lchov asboblarning vazifasi, tuzilishi va ularga texnik xizmat ko'rsatish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ish joyini va ish joyi atrofidagi hududlarni xavfsizlik talablariga muvofiq tayyorlaydi
		2. Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablariga muvofiq ishlarni olib boradi
		3. Ish qurollari va uskunalarning soz holatda ishlashini ta'minlaydi
		4. Xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda materiallarni konveyerda tashish ishlarini olib boradi
		5. Masofadan boshqariladigan konveyerlarga, yer osti ishlarida ishlab chiqarish quvvati soatiga 200 tonnagacha va yer usti ishlarda soatiga 500 tonnagacha bo'lgan konveyerlarga xizmat ko'rsatadi
		6. 3-razryad uchun yer osti ishlanmalarida soatiga 200 tonnadan ortiq va yer usti ishlarda soatiga 500 tonnadan ortiq quvvatga ega konveyerlarga, tushirish aravachasi mavjud konveyerlarga, soatiga 1000 tonnagacha bo'lgan ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ag'darma konveyerlariga, ko'p kovushli ekskavatorlar va transport-otval ko'priklariga xizmat ko'rsatadi
		7. 4-razryad uchun ishlab chiqarish quvvati soatiga 1000 tonnadan ortiq va 5000 tonnagacha bo'lgan ag'darma konveyerlari, ko'p cho'mich ekskavatorlar va

		ag'darma- transport ko'priklari, ishlab chiqarish quvvati soatiga 5000m³ gacha bo'lgan magistral konveyerlarning harakatlantiruvchi stansiyalariga, neytral muhitga ega germetik konveyerlarga xizmat ko'rsatadi 8. 5-razryad uchun ishlab chiqarish quvvati soatiga 5000 tonnadan ortiq bo'lgan ag'darma konveyerlari, ko'p cho'michli ekskavatorlar va ag'darma-transport ko'priklariga, ishlab chiqarish quvvati soatiga 5000 m³ va undan yuqori bo'lgan magistral konveyerlarning harakatlantiruvchi stansiyalariga, ikkita yoki undan ortiq harakatlantiruvchi stansiyalarga ega konveyerlarga xizmat ko'rsatadi
Texnik va/yoki texnologik talab:		Konveyer uskunalarining konstruksiyasi, ishlash prinsipi va texnik tavsiflarini bilishi zarur; Lentali, zanjirli va boshqa turdagi konveyerlarni belgilangan texnologik rejimda boshqarishi kerak; Konveyerlarni ishga tushirish, to'xtatish va favqulodda o'chirish tartibiga qat'iy rioya qilishi shart; Yuk oqimi, tezlik va yuklama ko'rsatkichlarini nazorat qilishi lozim; Konveyer lentalari, roliklar, barabanlar va tortish mexanizmlarining holatini doimiy tekshirishi zarur; Moylash, sozlash va mayda texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarishi kerak; Texnologik jarayonda yuzaga keladigan nosozliklarni aniqlashi va ularni bartaraf etish choralari ko'rish shart; Mehnat muhofazasi, sanoat, elektr va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilishi lozim; Texnologik hujjatlar, jurnal va ko'rsatkichlarni belgilangan tartibda yuritishi zarur; Konveyer uskunalar (lentali, skrepli, zanjirli), dvigatellar va reduktorlar, avtomatlashtirish va signalizatsiya vositalari, tozalash asboblari; Yordamchi jihozlar: turli o'lchamli kalitlar to'plami, otvyortkalar, metall molotok, rezina molotok, passatij, lom va montaj kaliti, domkrat, schetka va skreboklar, moylovchi asboblari, o'lchov asboblari, dinamometr, dielektrik qo'lqop; Shaxsiy himoya vositalari: kaska, respirator, shovqinga qarshi quloqchinlar, qo'lqoplar va maxsus kiyim, mustahkam maxsus poyabzal.

Kasbning nomi:	Tegirmon mashinisti (tog'-kon va boyitish ishlarida)
Mashg'ulot nomining kodi:	81121
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar. Mehnat muhofazasi, sanoat va texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi me'yoriy talablari, favqulodda vaziyatlar, yong'in va elektr xavfsizligi talablari bo'yicha bilimlarni sinovdan o'tgan bo'lishi. Dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik; Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish; Tegirmon uskunalarining ishlash prinsipi va texnologik jarayonlarini tushunish; Ishga tushirish, to'xtatish va texnologik jarayonlarni belgilangan rejimda boshqarish; Mahsulot sifatini nazorat qilish va granulometrik tarkibini tekshirish qobiliyatiga ega bo'lish; Nosozlik belgilarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralari aniqlash; Mehnat, sanoat, elektr va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish; Texnologik hujjatlarni to'g'ri yuritish va ish jarayonini dokumentatsiyalash qobiliyatiga ega bo'lish; Rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; O'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; Belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; Jamoa bilan inoq ishlash; O'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim.
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	

Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari:		3-6 razryadli Tegirmon mashinisti	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR boʻyicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		3	Togʻ-kon ishlab chiqarishida maydalovchi
		3	Konveyer mashinisti
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
D1.3 - Materiallarni tegirmonlarda yanchish ishlarini olib brish	D1.01.3 - Ish joyini tayyorlash, uskunalar holatini va ishga yaroqliligini tekshirish	Oʻqitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Smenani qabul qilish-topshirish vaqtida smena ishlab chiqarish vazifasi, yanchish tegirmonlari ish rejimi, belgilangan texnologik reglamentlardan ogʻishlar va ularni bartaraf etish boʻyicha koʻrilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida maʼlumot olish hamda maʼlumot berish	
		2. Smeni qabul qilayotgan shaxs tomonidan bildirilgan asboblarda va uskunalaridagi kamchiliklarni bartaraf etish	
		3. Amaldagi talablar va bajarilayotgan ishlarning xususiyatlariga muvofiq maxsus kiyimlar va shaxsiy himoya vositalarni qabul qilish, foydalanish va saqlash	
		4. Ishlab chiqarish vazifalarini bajarish uchun asbob-uskunalar va moslamalarni ishga tayyorlash	
		5. Dastlabki materiallar omborlarida va yuklash sigʻimlarida zaxiralar mavjudligini aniqlash	
		6. Tegirmonlar, nasoslar, klassifikatorlar, konveyerlar, saralash moslamalarining himoya toʻsiqlari mavjudligi va holatini tekshirish.	
		7. Tegirmonlar, nasoslar, klassifikatorlar, konveyerlar, gʻalvirlarning elektr uskunolari yerga ulanganligini va ularning ulanganlik holatini tekshirish	
		8. Materiallarni yanchish uskunalarining qoʻlda va avtomatik boshqarish tizimlarini toʻgʻri ishlashi va funksional ishonchliligini tekshirish	
		9. Toʻyintirgichlar, dozatorlar, gidrosiklonlar, tashuvchi va saralovchi moslamalarda material harakatini nazorat qilish	
		10. Tegirmonlar va yordamchi uskunlarning ishchi holatini nazorat qilish, nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish	
		11. Uskunalarni, ish joylarida chang va toʻkilgan materiallarni tozalash	
		12. Chang ajralish manbai boʻlgan apparatlar va asbob-uskunalarni qoplaydigan qoplamalarning butunligini nazorat qilish	
		13. Jabrlanganlarga birinchi yordam koʻrsatish	
14. Mehnat muhofazasi, sanoat, ekologiya, yongʻin va elektr xavfsizligi qoidalariga amal qilish			

		15. Smena jurnalini va hisob hujjatlarini yuritish
		Ko'nikmalar:
		Zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarining ta'sirini oldini olish yoki kamaytirish uchun shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish
		Belgilangan me'yor va qoidalarga muvofiq, himoya to'siqlari holatini, aloqa vositalari, ishlab chiqarish signalizatsiyasi, blokirovkalarining ishlashini, ish zonalarining yoritilganligini, ish joylarida yong'in va elektr xavfsizligi holatini nazorat usullari bilan va vizual aniqlash
		Maydonchalar, bunkerlar, voronkalar, yig'ma kollektorlarni tozalash va begona jismlarni olib tashlash uchun mexanizmlar, asbob-uskunalar hamda maxsus moslamalardan foydalanish
		Texnologik uskunani ishga tushirishga tayyorlash, uni ishga tushirish va to'xtatish uskunalaridan to'g'ri foydalanish
		Yanchish uchun mo'ljallangan yuklash sig'imlaridagi material zaxiralari mavjudligini vizual va me'yor o'lchagichlar ko'rsatkichlari asosida baholay olish
		Apparatlar, mexanizmlar, quvurlar, berkituvchi armatura va ish joyini toza holda saqlash
		Ish joylarining tozaligi, yoritilganligi, yong'in va elektr xavfsizligini belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish
		Favqulodda vaziyatlarda shaxsiy himoya vositalari, gazdan himoyalash apparatlari, o't o'chirish vositalari va favqulodda holatlar uchun mo'ljallangan asboblardan foydalanish
		Zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarining ta'siri natijasida jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish
		Bilimlar:
		Ish joyini xavfsiz holatda saqlash bo'yicha talablar
